

# 1 Mavzu: “Iqtisodiy savodxonlik” fanining predmeti va o‘rganish usullari.



## MAVZUSINING DOLZARBLIGI



Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarni o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yilning 27 fevraldagi "Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar" bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasidan*

# Reja

1. Iqtisodiyotning mohiyati .
2. Iqtisodiy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari .
3. Iqtisodiy savodxonlikni oshirishning jahon tajribasi va undan O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy dasturini ishlab chiqishda qo'llash .

## DOLZARBLIGI

Jahon tajribasiga ko'ra, iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko'p jihatdan fuqarolarning moliyaviy savodxonligiga bog'liqligi, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratishi.

**Rivojlangan mamlakatlarda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning davlat siyosati darajasiga chiqqanligi, mazkur jarayonning tizimli va samarali tashkil etilishi maxsus davlat idoralari yoki tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi.**

**Keyingi yillarda O'zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qarata boshlanganligi.**

# Iqtisodiyot nima

Iqtisodiyotga oid birinchi  
kitob yunonistonlik  
Ksenofont (mill.avv.430-356  
yillar ) tomonidan yozilgan .

**O'zbek tilidagi ma'nosi uy xo'jaligini yuritish san'ati**



# IQTISODIYOT

**ODAMLARNING EHTIYOJLARINI QONDIRISHI UCHUN ZARUR BO'LGAN HAR XIL NE'MATLAR ISHLAB CHIQRISH TAQSIMLASH VA ISTE'MOL QILISH VAZIFALARINI BAJARISHGA YO'NALTIRILGAN FAOLIYATLAR TIZIMIDIR.**



# IQTISODIYOT FANI

**Odamlarning ,korxonalarining va xatto butun davlatlarning iqtisodiy ne'matlarini yaratish,taqsimlash va iste'mol qilish jarayonidagi foliyatini o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan**



Iqtisodiyotning 1-chi asosiy tarkibiy qismi: Odamlar - ular o‘z mehnati va aql idroki bilan iqtisodiyotni harakatga keltiradi va boshqaradi





# Iqtisodiyotning 2-chi tarkibiy qismi: Tabiat

Tabiat  
iqtisodiyotning  
Xom-ashyo ombori  
hisoblanadi



Iqtisodiyotning 3-chi tarkibiy qismiga: Bino va inshootlar , zavod va fabrikalar yo‘l va ko‘priklar, asbob -uskunalar hamda boshqa inson qo‘li bilan yaratilgan narsalardan tarkib topgan sun‘iy muhit hisoblanadi.



# Iqtisodiyotning shu uch tarkibiy qismlarining birikishi natijasida IQTISODIY JARAYON vujudga keladi va to'rt bosqichda kechadi

**01**

Inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan ne'matlar ya'ni tavar va xizmatlar yaratiladi

**02**

Yaratilgan tavar va xizmatlar taqsimlanadi

**03**

Taqsimlangan tavar va xizmatlar ayrboshlanadi

**04**

Ayr boshlangan tavar va xizmatlar iste'mol qilinadi



## Iqtisodiy savodxonlikning mohiyati ...

Jamiyatning bosh iqtisodiy masalasi. Aholi daromadlari va harajatlari. Aholi daromadlarini oshirish yo'llari. Iqtisodiy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik tushunchalari. Tadbirkorlik. Tadbirkorlik turlari va shakllari. Uy xo'jaliklari moliyasi. Iste'mol va jamg'armalari. Iqtisodiy xulq-atvor. Pullar, pul funktsiyalari. Inflyatsiya va deflyatsiya. Valyuta va valyuta bozorlari.

# Aholining iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

**01**

**Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi**

**02**

**Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi.**

**03**

**Aholini uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojini keskin ortishi**

**04**

**Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarining kengayishi**

**05**

**Aholi mehnat migratsiyasi miqyosini kengayishi**

# Moliyaviy xizmatlarni iste'molchilari uchun moliyaviy savodxonlikning past darajasi quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi

**01**

samarasiz qarorlarni qa'bul qilinishi tufayli moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchni pasayishi

**02**

shaxsni qarzdorlik majburiyatlarini yuqori darajadali

**03**

jismoniy shaxslarning ommaviy bankrot bo'lishi;

**04**


o'sib kelayotgan avlodga salbiy moliyaviy tajribani o'rgatish

**05**

hayotiy muhim mahsulotlar uchun jamg'arishning past darajasi

# Moliyaviy savodxonlik mazmun-mohiyatini ifodalovchi jarayon

ФЕДЕРАЛЬНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ



# Moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning turli darajalar bo'yicha tabaqalanishi

Moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning turli darajalar bo'yicha tabaqalanishi

Alohida shaxsning moliyaviy savodxonligi darajasi

- shaxsning yoshi;
- ma'lumot darajasi;
- kasbi, mutaxassisligi yoki faoliyat yo'nalishi - iqtisodiy faollik darajasi;
- qiziqish doirasi, dunyoqarashining kengligi va h.k.

Muayyan hudud aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi


- hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- hududda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar;
- moliyaviy institutlar va infratuzilma ob'yektlari faoliyat darajasi;
- hududning geografik joylashuvi va h.k.

Muayyan hudud aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi


- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- mamlakatning iqtisodiy salohiyati;
- aholi mentaliteti;
- davlatning iqtisodiy siyosati va h.k.



# MOLIYAVIY SAVODXONLIK O‘SISHI



# Alohida shaxsning moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillarning funksiyalari





## E'tiboringiz uchun rahmat!

Muvoffaqqiyatga uch narsa kaf: yaxshi niyat qil, ishon va intil!!!

